

BOLALAR ADABIYOTINING NOZIKTA‘B ZARSHUNOSI

Laylo Sharipova

*BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi professori, f.f.d.*

***Annotatsiya:** bolalar adabiyotshunosligining taraqqiyoti bolalar adabiyotining rivojiga ijobiy ta‘sir qiladi. Bolalar adabiyotshunosligi vakillari, afsuski, ko‘p emas. Yetuk bolalar adabiyotshunoslari orasida ustoz olim R.Barakayevning munosib o‘rni bor. Maqolada shu haqda fikr boradi.*

***Kalit so‘zlar:** bolalar adabiyoti, bolalar adabiyotshunosligi, o‘zbek bolalar she‘riyati, an‘ana, shoir, yozuvchi, vorisiylik.*

Qaysi mamlakatda bolalar adabiyoti taraqqiyotiga atroflicha va jiddiy e‘tibor qaratilmas ekan, bolalar tarbiyasida oqsash yuzaga kelaveradi. Bu oqsash yuzaga kelmasligi uchun bolalar adabiyotshunosligi ham taraqqiy etib boraverishi lozim. Kimlardir shu sohada dissertatsiya yozishi, darajaga ega bo‘lishi, ammo bu vazifani bir umr yelkalab o‘tolmasligi mumkin. Negaki “Bolalar adabiyoti kerak emas” yoki “Bu adabiyot badiiyati kattalar adabiyotidan sust bo‘ladi” tarzida bir yoqlama fikrlaydigan adabiyotshunoslar, ijodkorlar yetarli. Ular bolalar dunyosi alohida ekanini, bolalar uchun badiiyati yuksak asarlar kam yaratilayotgani bu adabiyotning badiiyati sust bo‘ladi degani emasligini yo anglamaydilar yo tan olmaydilar. Shu ma‘noda fikr yuritganda, bolalar adabiyoti tadqiqi oson emasligini ta‘kidlash joiz. Buning uchun yuksak ilmiy salohiyat bilan bir qatorda bolalar dunyosini anglay oladigan, o‘sha olamda yashay oladigan(hech bo‘lmasa bolalar adabiyoti tadqiqi davomida) yurak zarur. Bola uchun zarur tasvir, ifoda, so‘z birligini idrok qila olmaydigan olim bolalar adabiyotshunosi bo‘la olmaydi. Shu sababdan ham yetuk bolalar adabiyotshunoslari barmoq bilan sanarli. Shu sanoqli olimlar orasida Rahmatillo Barakayev ham bor.

Ustoz bolalar adabiyotshunosi sifatida shu sohaning rivojiga o‘z taqdirini bog‘ladi va o‘zini javobgarlardan biri deb bildi. Aslida ana shu his, ana shu mas‘uliyat olimni darajama-daraja yuksaltirib bordi. Shu javobgarlik hissi sabab “Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyati: an‘ana, vorisiylik va izlanish”, “Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyatining ba‘zi o‘ziga xosliklari”, “Kitob, mening do‘stimsan! (O‘zbek bolalar adabiyotining bugungi ahvoli haqida ba‘zi mulohazalar)”, “Globallashuv davri bolalar adabiyotimiz qahramoni”, “Bugungi bolalar adabiyotining qahramoni kim bo‘lishi kerak?” singari maqolalari dunyo yuzini ko‘rdi. Bu maqolalar bolalar adabiyotshunosligida alohida o‘rin tutadi. Maqolalarda ayni sohaning yutuq va kamchiliklari, og‘riqli jihatlari teran nigohli olim tomonidan ham dadil, ham vazmin tarzda ifoda etilgan. Aslida sohaga bog‘liq jihatlarni dadil aytish uchun jur‘at va ilm; vazmin holda ifoda qilish uchun farosat va zakiylik kerak. Odatda, fikrlar manzilini tez hamda to‘g‘ri topib borishi uchun

dadillik bilan vazminlik muhim. Ustoz olim maqolalarida shu jihat bor. Maqolalarga e’tiborni qaratsak.

“Kitob, mening do‘stimsan! (O‘zbek bolalar adabiyotining bugungi ahvoli haqida ba’zi mulohazalar)” nomli maqolasida muallif shunchaki kitob mutolaasi targ‘iboti bilan cheklanib qolmagan. Olim bolalar adabiyotining muhim jihatlari haqida fikr yuritib, uning ma’rifiylik xususiyatiga alohida to‘xtalgan. Bolalarning so‘z boyligi qashshoqlashgani bugunning salbiy oqibatlaridan biri ekanini aytar ekan, bayonning, inshoning fikrni yozma ravishda ravon ifodalash malakasini shakllantirishdagi xizmatini alohida ta’kidlaydi. Maktubning bu boradagi ahamiyatini aytar ekan, “qo‘l telefonidan savodsizlarcha yozilayotgan SMSlar esa hech qachon qog‘oz-qalamda yozilgan, ko‘nglingizga maqbul so‘zni topmaguncha necha martalab tahrir qilingan, o‘chirib qayta yozilgan maktub o‘rnini bosolmasligini” topib aytadi. Olim kichik ko‘ringan muammoning ortida savodsizlik yashirin ekanini bir necha yillar oldin kuyunchaklik bilan ayta olgan.

“Istiqlol davri bolalar adabiyoti: an’ana, vorisiylik va izlanish” maqolasida olim bolalar adabiyotining bosh vazifasini “farzandlarimizni ma’naviy-axloqiy kamolot ruhida tarbiyalashdir” deb belgilab bergan. Maqolada R.Barakayev “O‘zbek bolalar adabiyoti istiqlo davrida nimalarga erishdi?” tarzidagi muhim savolni qo‘yar ekan, quyidagi javoblarni beradi:

1. Bolalar adabiyoti o‘z tabiiy o‘zanlariga qayta boshladi.
2. Bugungi maktablarimizning yangi dasturlariga “Odobnoma” fani kiritildi.
3. Yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarimizdan Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”, Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud Axloq” asarlaridan olingan parchalar mustahkam o‘rin egalladi. Olim bu fikrlarni aytar ekan, istiqlo davri o‘zbek bolalar adabiyoti o‘zining bevosita ma’rifiy vazifasini bajarishga kirishganini ta’kidlaydi. Bu olimning pozitsiyasini anglatishi bilan birga jarayonni teran tahlil qilganini ham ko‘rsatadi. Ustoz, ayni damda, bolalar adabiyotshunosi sifatida istiqlo davri yangi bolalar adabiyoti maydonga keldi va bu adabiyotning yuzaga kelishida XX asrning 80-yillari adabiyoti katta ta’sir ko‘rsatdi deb hisobladi.

“Globallashuv davri bolalar adabiyotimiz qahramoni” maqolasida olim istiqlo davri bolalar she’riyatiga haqiqiy o‘zbek qiyofasi kirib kela boshlaganini aytib, vatanparvar adabiyotshunos sifatida suyunadi. O‘zbek qiyofasini belgilovchi qirralar sifatida uning bag‘rikengligi, mehnatsevarligi aytilib, shu jihatlar aks ettirilgan she’rlar tahlilga tortilgan. Olim zakiylik bilan she’rlarni g‘oyaviy-badiiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tahlilga tortgan. She’riy asarlarning bolalarga bag‘ishlaydigan estetik zavqi haqida alohida e’tibor bilan yozgan.

R.Barakayev tadqiqotlari nafaqat yosh avlodga, balki ilm ahliga ham yangi ma’lumotlar, yangi ilmiy-nazariy xulosalar bera oladi. Fikrimizga olimning har bir maqolasini dalil keltirish mumkin. Olim shu ikki jihatsiz ilmiy yoki ilmiy-ommabop maqola yozmagan, bizningcha. Ayrim maqolalari misolida fikrimizni oydinlashtirsak.

Olimning jangchi shoir sifatida e’tirof qilingan Sulton Jo’ra haqidagi maqolasida “shoir yosh kitobxonlar uchun yirik badiiy asarlar ham ijod etgani, uning “Qaldirg’och”, “Zangori gilam” she’riy ertaklari va “Bruno” poemasi o‘zbek bolalar she’riyati taraqqiyotida muhim ahamiyatga egaligi, “Qaldirg’och” ertagida yurt sog‘inchi, “Zangori gilam” ertagida esa erk uchun kurash motivlari in’ikos topgani” sinchkovlik bilan topib aytilgan. Maqola so‘ngidagi “O‘zbekistonning taniqli hujjatli filmchilari Malik Qayumov, O‘ktam Rizayev va Fayzulla Xo‘jayevlar belorussiyalik operatorlar bilan hamkorlikda jang maydonlarida jon bergan O‘zbekiston rassomlari, yozuvchilari, artistlari haqida “Alanga bo‘ylab uchib o‘tgan qushlar” hujjatli filmi suratga olishgan. Filmning asosiy g‘oyasi sifatida askar Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi ochib berilgan” tarzidagi ma’lumoti men uchun ham yangi ma’lumot edi.

Olimning bolalarning sevimli shoiri, nosiri S.Barnoyev haqidagi “Tinchlikni ulug‘lagan ijodkor” maqolasida ijodkor ko‘proq o‘smirlarni qahramon qilib olgani, ularning hayot-mamot kurashlariga tayyor bo‘lishlari yo‘lida tafakkur zarurligini inobatga olib asar yaratgani, ko‘proq urush yillari ulg‘aytgan bolalar hayotini aks ettirib, tinchlikni himoya qilgani ta’kidlanadi. Olim “...Yozuvchining qahramonlari, bir jihatdan, hali bolalarcha sho‘x bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, aqlli, ziyrak va xayolparast bolalar. Ular, shoir aytganidek, “kaftlaridagi son-sanoqsiz chiziqlar”ga qarab, umrning mazmuni haqida cheksiz xayollarga cho‘madilar” deb qayd etish orqali S.Barnoyev ijodiga xos ma’lum jihatlarni ochib bera olgan. Ayni damda, o‘quvchisiga “S.Barnoyev 1987-yilda hukumat delegatsiyasi tarkibida Afg‘onistonga borgani, urush davri jarohatlarini bolaligida o‘z boshidan kechirgan shoir afg‘on xalqi boshiga urush solgan kulfatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani” haqida ma’lumot beradi. Ustoz R.Barakayevning har bir maqolasida bunday fazilatlar, ayni damda, tahlil ham, talqin ham yetarli. Olim bolalar adabiyotining nozikta’b zarshunosi sifatida umrguzaronlik qilmoqda. Faqat bolalar adabiyoti tadqiqi bilan chegaralanmadi, balki bolalar adabiyoti va mumtoz adabiyot; bolalar adabiyoti va folklor munosabatlarini yorituvchi ajoyib tadqiqotlari bilan o‘zbek adabiyotshunosligiga o‘zining munosib ulushini qo‘shdi. Ustoz olim hali ko‘p tadqiqotlar yaratib, bu ulushini yuksaltirib borishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barakayev R. Istiqlol davri bolalar adabiyoti: an’ana, vorisiylik va izlanish // O‘zbek tili va adabiyoti”, 2003. – №3. – B.3-14.
2. Barakayev R. XX asr boshlari o‘zbek bolalar adabiyotida an’ana: adabiy ta’sir va badiiy mahorat. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2004, № 4. – B. 25-29.
3. Barakayev R. Globallashuv davri bolalar adabiyotimiz qahramoni. “Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. 2-kitob. – Toshkent, 2018. – B. 207-215.